

DILSHODI BARNONING IJTIMOY-FALSAFIY, MA'RIFIY QARASHLARI

Ishanchayeva Shoirahon Baxramdjanovna, Andijon qishloq xo'jaligi va agrotehnologiyalar instituti "Gumanitar fanlar" kafedrasi izlanuvchisi. Andijon, O'zbekiston

DILSHODI BARNO'S SOCIO-PHILOSOPICAL AND EDUCATIONAL VIEWS

Ishanchaeva Shoirakhon Bakhramjanova

Researcher of the Department of "Humanities" of the Institute of Agriculture and agrotechnologies of Andijan. Andijan, Uzbekistan

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ, ПРОСВЕТИТЕЛЬСКИЕ ВЗГЛЯДЫ ДИЛШОДЫ БАРНО

Ишанчаева Шоирохон Баҳрамжановна

*Исследователь кафедры «Гуманитарных наук»
Андижанского института сельского хозяйства и
агротехнологий. Андижан, Узбекистан*

Annotation. Mazkur maqolada yurtimizda ko'p asrlik milliy davlatchiligimiz tarixiga hissa qo'shgan ma'rifatparvar ayol Dilshodi Barnoning ijtimoiy-falsafiy qarashlari, ma'rifatparvarlik g'oyalari va ularning jamiyat hayotiga ta'siri haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: Ibratli ayol, millat tarbiyachisi, nafosat egasi, O'rta Osiyo, erkinlik, axloqiy fazilat, inson taqdiri uchun qayg'urish, ilmsizlik, diniy aqidalar, ma'rifatparvar, adolat, Yangi O'zbekiston, zullisonayn.

Annotation. This article examines the socio-philosophical views, ideas of enlightenment, and their influence on the public life of Dilshodi Barno, who contributed to the centuries-old history of the formation of national statehood in our country.

Key words: Model women, educator, of the nation, refinement, Central Asia, moral virtues, concern for the fate of man, ignorance, religious, beliefs, freedom, education, justice, New Uzbekistan, truth, zullisonain.

Аннотация. В данной статье рассматривается социально-философские взгляды, идеи просветительства и их влияние на общественную жизнь Дилишоды Барно, которая внесла вклад в многовековую историю становления национальной государственности нашей страны.

Ключевые слова. Образцовая женщина, воспитательница нации, утончённость, Средняя Азия, нравственные добродетели, забота о судьбе человека, невежества, религиозные убеждение, свобода, просвещение, справедливость, Новый Узбекистан, истина, зуллисонайн.



E-mail:

obidovobidov22@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0006-6962-7698>

Tel: (90)5471441

O'rta Osiyoda ma'rifatparvarlik harakati tarixida shoiralar, olimalar va tarixshunos ayollarga bag'ishlangan yorqin sahifalarni ko'plab uchratish mumkin. Biroq, ijtimoiy-falsafiy jihatdan qaralganda, aksariyatining hayoti va faoliyati obro'sizlantirish, soxtalashtirish bo'roni hamda ijodida turli cheklovlar o'rnatilgan tarzda va ko'pincha fojia bilan tugaydi. Masalan, O'rta Osiyoda xonliklar davridan boshlab to XX asr boshlarigacha zamon zayli sababli, jamiyatda belgilab qo'yilgan qat'iy shariat tahlili va urf-odat qonunlarining shartli hukmronligi bois musulmon ayolining imkoniyatlari Yevropa ayoliga nisbatan cheklangan yoki jamiyatda yevropalik ayoli kabi maqomga ega emas edi. Shunga qaramasdan, ma'rifatparvar ayollar ijtimoiy hayotga falsafiy qarashlari bilan shijoat bilan kirib keldilar. Musulmon ayollarining ilm-ma'rifatga intilish namunasini, erkinlik uchun harakat ibratini, o'lkadagiadolatsizliklarni so'nmas ijod falsafasi bilan namoyish etib, shu bilan bir qatorda farzandlarini ham tarbiya etgan. Ma'rifatparvar ayollarning benazir ijodini qolaversa, ularning hayot falsafasini o'rganish bugungi kunning dolzarb vazifalaridandir. Ayol ma'rifatparvarlarining ijtimoiy-falsafiy ijod maktabi, ma'naviy olami, dunyoviy ilm-fanni rivojlantirish yo'lidagi faoliyati haligacha mukammal o'rganilmagan. Mazkur sohada mualliflar Z.Abdirashidov, V.Kocharov¹²⁰, A.Muxtarov, N.Ostromov¹²¹, F.Xusainova¹²², M.Qodirova, Z.Abdulazizova, A.Xudaykulov¹²³, A.Rasulov¹²⁴, D.Nasriddinov alarning yozgan monografik risolalari, dissertatsiyalari va davriy matbuotlarda nashr etilgan maqolalarida esa mazkur davrdagi ayol ma'rifatparvarlarning ijodi bilan bog'liq bo'lgan muammolarning ma'lum bir qismlari qamrab olingan.

Negaki, Yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessansni ma'rifat bilan qurollangan barkamol

¹²⁰Kocharov V.T. Iz istorii organizatsii i razvitiya narodnogo obrazovaniya v dorevolusionnom Uzbekistane (1865-1917 gg). – Tashkent, "Fan". 1966. – 124 bet;

¹²¹Ostromov N.P. Musulmanskie maktaby i russkotuzemnye shkoly v Turkestanskem krae. - M.: 2011. – 176.

¹²²Xusainova F. Demokrat shoira Anbar otin. – Toshkent: "Movorounnah", 1964. 36-bet.

avlod yaratadi. XVII-XX asrlarda, ya'ni ma'rifatparvarlik asta-sekin o'zidan jadidchilik harakatini tug'dirgan ma'naviy-ma'rifiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotda zamon bilan hamfikr va hamqadam bo'lgan ta'lim, matbuot va tarbiya tizimida islohotlarni amalga oshirish zarurati, jamiyatni barqaror rivojlantirish haqidagi falsafiy g'oyalar va qarashlarning amaldagi ifodasini ko'rish uchun ayol ma'rifatparvarlarining yaratgan merosi va ularning ilmiy asoslari yaxlit ko'rinishda tadqiq etilmagan.

Ilm-ma'rifat sohibalarining ma'rifatparvarlik qarashlariga oid ilk maqolalar, dastlab mahalliy gazetalarda nashr etilgan. Mahfuza Maqsudova va Salima Yoqubova tomonidan Turkiston o'lkasida ayollar uchun ham dunyoviy maktablarni ochish, nikoh va oila kabi ijtimoiy-falsafiy qarashlarini ifodalovchi maqola birinchi marotaba "Sadoi Turkiston" (Turkiston ovozi) gazetasida chop etildi¹²⁵. Maqolaning mazmuniga ko'ra, maorif faoliyatini faqat maxsus o'qitish kursini tugatganligi to'g'risida xujjatga ega bo'lganlargina amalga oshirishlari kerak edi. Shuningdek, maqolada qizlar maktablaridagi o'qituvchilarga ham ma'lum tartibda maosh to'lanishi kerak deb, aslida ayollarni ma'rifatli qilish borasidagi nuqson va kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan bir necha asrlar davomida yig'ilgan davr muammosining yechish yo'lidagi qadamning oshkora ko'rinishi edi. Chunki, XIX asrning oxirida O'rta Osiyoning taraqqiyat parvar ayollari ta'limni o'zgartirish lozimligi to'g'risida o'zlarining fikrmulohazalari hamda amaldagi ishlari bilan faol ishtirok etdilar.

Davrning ijtimoiy mohiyatini teran anglagan otunlar, ustoz-ayollar ma'rifatparvarlik g'oyalarini, maktab o'qituvchilari sifatida darslarini zamon bilan moslashtirib o'tkaza boshladilar. Manbalarning guvohlik berishicha, Dilshod Barno,

¹²³Xudaykulov A.M. Prospektorskaya deyatelnost djadidov Turkestan (kones XIX – nachalo XX v.)Diss. na sois. kand. ist. nauk. - Tashkent, 1995.

¹²⁴RasulovA., NasriddinovaD. Jadidchilikharakatidatatarayollarningo'rni. / Jadidma'rifatparvarlikharakatning oyaviyasolari /. - Toshkent, Toshkentislomuniversiteti, 2016.

¹²⁵Yakubova S., Maksudova M. O brake // "Sadoi Turkiston" gazetasi, 20 maya 1914 g

Anbarotun, Uvaysiy va boshqalar faoliyati bu borada ibratlidir. Bu ma'rifatparvarlar o'sha davrda jamiyatda o'rtasida savodli ayollar deb atalgan. O'quvchi qizlar 13-14 yoshgacha maktablarda yozma va arab grafikasini o'rganish bilan birga, mashhur va mumtoz shoirlar Gulxaniy, Fuzuliy, Bedil, Navoiy, Sa'diy, Hofiz va boshqalar ijodlarini ham o'rganganlar. Mutaxassislar fikriga asosan mazkur maktablarda qizlar uzoq vaqt mobaynida o'g'il bolalarga nisbatan ko'proq bilim olishlari mumkin bo'lib¹²⁶, aslida ham dunyodan deyarli uzilgan, uyda o'tirgan bilimga tashna qizlar ma'rifatparvar ayollarda katta ishtiyoq bilan ta'lim olganlar.

Mazkur davrning ma'rifatparvar ayollarning yetuk vakilalaridan biri Dilshod Barnodir. U zamonaviy o'zbek adabiyotining ko'zga ko'ringan vakillaridan biri bo'lib, uning asarlarida insoniylik, mehr-oqibat, ma'naviyat,adolat kabi falsafiy tushunchalar keng yoritilgan. Uning ijodi o'zbek xalqining tarixiy, axloqiy va ma'naviy qadriyatlarini asrab-avaylash, yosh avlodni tarbiyalashda muhim o'rinn tutadi.

Avvalo, Dilshodi Barno o'z asarlarida ayolning jamiyatdagi o'rni masalasiga alohida e'tibor qaratadi. U ayolni nafaqat ona, balki jamiyat taraqqiyotining faol ishtirokchisi deb tasvirlaydi. Ayollarga nisbatan hurmat, ehtirom, ularning ornomusi, mehridaryo qalbi asarlarida bosh mavzulardan biri sifatida ilgari suriladi. Bu orqali muallif o'quvchini ayollarga nisbatan insoniy, axloqiy munosabatda bo'lishni uqtiradi etadi.

Dilshodi Barnoning ma'rifiy qarashlarida ilm, axloq va vatanparvarlik tushunchalari o'zaro uyg'un holda namoyon bo'ladi. Uning she'rlari, maqolalari va nutqlarida yoshlarda ma'naviy uyg'onish, bilim olishga intilish, ona tiliga va milliy qadriyatlarga hurmat bilan qarashga undovchi fikrlar ustuvorlik qiladi.

Shuningdek, Dilshodi Barno ko'plab chiqishlarida inson qadri,adolat, tenglik haqida fikr bildiradi. U jamiyatda saxovat, mehr-muruvvat, insonparvarlik g'oyalarini targ'ib qilish orqali o'zining ijtimoiy-falsafiy pozitsiyasini bildiradi. Ayniqsa, mehrga muhtoj qatlamlarga — keksa kishilar, nogironlar,

yolg'iz qolgan onalarga nisbatan ijobiy munosabat shakllantirishga xizmat qiluvchi qarashlari jamiyatda ijobiy o'zgarishlarga sabab bo'ladi.

Shunday qilib, Dilshodi Barnoning ijtimoiy-falsafiy va ma'rifiy qarashlari bugungi jamiyat hayotida dolzarb bo'lgan ko'plab masalalarni yoritishga qaratilgan bo'lib, uning ijodi orqali yoshlarda yuksak ma'naviyat va fuqarolik mas'uliysi shakllanadi. Ma'rifatparvar shoira va mutafakkir Dilshod o'zining shogird qizlariga o'sha paytda mahalliy gazetalarda chop etilgan shoirlarning asarlari, ularning ijtimoiy-falsafiy ahamiyati haqida darslar berardi.

*Eng yaqin do 'stu aziz, ham dard u
darmondur kitob,*

*Hamdamim , ham suhbatimu
hamqadrondurdur kitob.*

*Manga ilm o'rgatguchi ustod, bilimdonlur
kitob,*

*Dil g'uborin aritguchig'am xoru jopoidur
kitob,*

*Tanda jonim xizmatig'a ragdag'i qondur
kitob¹²⁷.*

O'sha paytda, ilmsizlik, diniy aqidalar hukmron bo'lgan feodalizm sharoitida xotin-qizlarni ilm-ma'rifatli qilish kuchli progressiv xodisa edi. Dilshod falsafasi mana shu davr xatolarini to'liq tushungan xolda yosh qizlarni tarbiyalar, ularni ilm yo'lida xat-savodini chiqarib, chuqr bilim egasi qilib chiqarishdan iborat edi. Shuningdek, yosh iste'dodli qizlarga o'zbek va xorij klassikasi namoyandalarining asarlarini ilmiy tahlillar asosida o'rgatib, ularni estetik ruhda tarbiya etib, o'z zamonasining ilg'or ma'rifat egasi qilib yetishtirishga harakat qilar edi. Ilmiy ijodiy izlanishlari natijasiga ko'ra shoira faoliyati davomida 891 nafar qiz xat savodini chiqargan. Dilshod falsafasida insonga muhabbat, inson taqdiri uchun qayg'urish, hayotni qadrlash,adolat va haqiqatga intilish nozik his, nafosat bilan kuylanadi, zamon qabohati, pastkashlik va yaramas urfodatlardan nafratlanadi. Ezgulik, haqiqat borasida fikr yuritadi, uning she'rlarida zamon bilan, el-yurt bilan hamnafaslik sezilib turadi. Har bir g'azalda

¹²⁶ Pashino P.I. Turkestanskiy kray v 1866 godu. Putevye zametki. B. – Peterburg, Tip. Tilena i Neklyudova

¹²⁷ Dilshodi Barno va adabiy merosini o'rganish "Irfon", Dushanbe, 1970, 140-bet.

hayotning achchiq-chuchugini boshidan kechirgan, yechilmash muammolarga duch kelgan, ularni hal etish yo‘lida qo‘lidan kelgancha harakat qilgan umidvor bir qalbning sadosi yangraydi.

Tong jamolin ko‘rmoqchiman olg‘i safda, O‘ng qo‘limg‘a berib yangi livo, uyg‘ot, Bir o‘zumni dedim xaloyiq nomidin, Olam ichra tal‘at berib jilo, uyg‘ot. Bodi sabo, o‘zginangdin umidim ko‘p, Mahrum o‘lmay Barno baxti qaro, uyg‘ot¹²⁸.

Dilshod Sharq falsafasini o‘rganish orqali eng qimmat axloqiy fazilatlarni asarlari orqali targ‘ib qilishga harakat qildi. U o‘z shogirdlariga yuksak odob-axloq, mehr-oqibat, poklik va mehnat haqidagi barcha o‘gitlarga vijdonan amal qilishni meros qoldirdi. Asosiysi, Dilshod Barno yaxshi kunlardan umidvor bo‘lib, u ayollarning jamiyatdagi mavqeini o‘zgartirish va erkaklar bilan teng huquqli bo‘lish uchun kurashgan o‘z davrining birinchi ma‘rifatparvar ayolidir. Ikki tilda ijod qilgan-zullisonayn ma‘rifat egasi Dilshodi Barno ayol ma‘rifati va jamiyatdagi o‘rni haqida bir necha asarlar va she’riy misralar muallifidir¹²⁹. Dilshodi Barno o‘zining ijtimoiy-falsafiy va ma‘rifiy qarashlari orqali nafaqat adabiyotga, balki jamiyatning ma‘naviy yuksalishiga ham hissa qo‘sghan ijodkordir. Uning asarlarida insoniylik, mehr-muruvvat, ayolga hurmat, yoshlarga e’tibor, ma‘rifatga da‘vat kabi tushunchalar chuqur ifoda etilgan. Ayniqsa, ayollar, keksa kishilar va mehrga muhtoj insonlarga nisbatan mehrbonlik, saxovat va e’tiborni targ‘ib qiluvchi fikrlari bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan.

Uning ijodi yosh avlodni ma‘naviy barkamollikka yetaklaydi, inson qalbida ezzulik va adolat tuyg‘ularini joylaydi. Shunday qilib, Dilshodi Barnoning qarashlari o‘zbek jamiyatida yuksak axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda muhim falsafiy va tarbiyaviy asos bo‘lib xizmat qiladi. Davr taqazosi badiiy obrazlar orqali o‘z tafakkurini namoyish etish qobiliyatini ko‘plab sharq ayol ma‘rifatparvarlarga hadya etganligi ularning falsafiy mazmunga xos dunyoqarashidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Xudaykulov A.M. Prosvetitelskaya deyatelnost djadidov Turkestana (kones XIX – nachalo XX v.) Diss. na sois. kand. ist. nauk. - Tashkent, 1995.
2. Rasulov A., Nasriddinova D. Jadidchilik harakatida tatar ayollarning o‘rni. / Jadid ma‘rifatparvarlik harakatning g‘oyaviy asoslari /. - Toshkent, Toshkent islom universiteti, 2016.
3. Dilshod. Tanlangan asarlar. G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’ati nashriyoti. T., 1972 yil 4-bet.
4. Dilshodi Barno va adabiy merosini o‘rganish “Irfon”, Dushanbe, 1970, 140-bet.
5. Dilshod. “Sabotul bashar”, 8- sahifa.
6. A.Muxtarov. Dilshad i yevo mesto v istorii obshestvennoy misli tadjikskogo naroda v XIX nachalo XX vv, Iz-vo “Donish”, Dushanbe, 1969 g.
7. Dilshod. Tanlangan asarlar. G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’ati nashriyoti. T., 1972 yil 4-bet.



¹²⁸Dilshod.“Sabotul bashar”, 8- sahifa.

¹²⁹ Mashriqzamin — hikmat bo‘stoni. // Tarj., to‘plovchi hamda izoh mualliflari: H.Homidiy va Mahmud Hasaniy.

Mas’ul muharrir: G‘. As-Salom. — T.: Sharq NMK. 1997. 360-bet